

Xalqaro savdo bitimlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha nazariy va ilmiy asoslar

T.Janazarov

Ilmiy rahbar: N.A.Mamadalieyva

NIU

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro savdo eng samarali firmalarning bozorda qolishi va kengayishi, samarasizlarining esa siqib chiqarilishi orqali iqtisodiyotning umumiy unumdorligini oshirilishi, shuningdek, xalqaro savdo bitimlarining turli shakllari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tashqi savdo siyosati, valyuta holati va boshqa omillarga qarab qo'llanilishi o'rganildi.

Kalit so'zlar: savdo, xalqaro, nazariya, milliy iqtisodiyot, heterogenlik nazariyasi, eksport, import

Theoretical and scientific foundations of the impact of international trade agreements on the national economy

T.Zhanazarov

Scientific supervisor: N.A.Mamadalieva

NIU

Abstract: This article examines the role of international trade in increasing the overall productivity of the economy through the retention and expansion of the most efficient firms in the market and the displacement of inefficient ones, as well as the use of various forms of international trade agreements depending on the level of economic development of countries, foreign trade policy, currency situation and other factors.

Keywords: trade, international, theory, national economy, heterogeneity theory, export, import

XX asrning ikkinchi yarmida yangi savdo nazariyalari shakllana boshladi. Bu nazariyalarning yuzaga kelishiga real hayotda kuzatiladigan, ammo klassik modellar bilan izohlab bo'lmaydigan hodisalar - rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi o'xshash tovarlar savdosining (ichki tarmoq savdosi) katta hajmi, TMKlar faoliyatining faollashuvi, miqyos samarasining muhimligi sabab bo'ldi. Pol Krugman, Elhanan Helpman, Kelvin Lankaster va boshqa iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan yangi savdo nazariyasi monopolistik raqobat, miqyos samarasi va iste'molchilarning turli xil tovarlarga bo'lgan talabini hisobga oladi. Unga ko'ra, mamlakatlar o'rtasidagi farqlar

bo'lmagan taqdirda ham (masalan, rivojlangan mamlakatlar), miqyos samarasiga erishish va iste'molchilarga xilma-xil tovarlar taklif qilish maqsadida o'zaro savdo amalga oshiriladi. Bu nazariya ayniqsa rivojlangan davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama savdo oqimlarini (bir vaqtning o'zida avtomobil eksporti va importi) tushuntirishda muhim ahamiyatga ega[4-manba; 6-manba]. Keyingi yillarda esa firma darajasidagi heterogenlik nazariyasi (Mark Melits, E.Helpman, S.Yeaple) rivojlandi. Bu yondashuvga ko'ra, eksport qiluvchi firmalar odatda yirikroq, unumdorligi yuqoriroq va innovatsion faolroq bo'ladi. Xalqaro savdo eng samarali firmalarning bozorda qolishi va kengayishi, samarasizlarining esa siqib chiqarilishi orqali iqtisodiyotning umumiy unumdorligini oshiradi. Bu nazariya savdo siyosatining firmalar faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda keng qo'llaniladi[5, 6, 7].

Xalqaro savdo bitimlari - turli mamlakatlarning eksportyorlari va importyorlari o'rtasida tovar yoki xizmatlarni yetkazib berish, shuningdek, o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha tuziladigan shartnomalardir. Ushbu bitimlar xalqaro tijorat amaliyotida turli shakl va turlarda uchraydi[1,2].

Tashqi savdo operatsiyalarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Eksport bitimlari - milliy ishlab chiqarilgan tovarlar yoki xizmatlarni chet elga sotish maqsadida chiqarish. Eksport to'g'ridan-to'g'ri (ishlab chiqaruvchi tomonidan) yoki bilvosita (vositachi orqali) amalga oshirilishi mumkin.

2. Import bitimlari - xorijiy tovar yoki xizmatlarni ichki bozorda sotish yoki ishlatish maqsadida olib kirish.

3. Reeksport bitimlari - ilgari import qilingan tovarni qayta ishlamasdan boshqa mamlakatga sotish.

4. Reimport bitimlari - ilgari eksport qilingan milliy tovarni qayta sotib olish (masalan, nuqsonli mahsulotni qaytarish).

O'zaro hisob-kitob xususiyatiga ko'ra xalqaro savdo bitimlari quyidagi shakllarga bo'linadi[1-manba; 2-manba]:

Valyuta asosidagi bitimlar - tovarlar (xizmatlar) qiymati kelishilgan valyutada to'lanadi. Bu eng keng tarqalgan shakl bo'lib, jahon savdosining asosiy qismi AQSH dollari, yevro, funt sterling kabi erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarda amalga oshiriladi.

Qarshi savdo bitimlari - tovarlar qiymati qisman yoki to'liq boshqa tovar bilan qoplanadi. Qarshi savdo quyidagi turlarga bo'linadi:

- Barter - to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz tovar ayirboshlash. Tovarlarning qiymati faqat hisobiy o'lchov sifatida qo'llaniladi.

- Kliring - ikki mamlakat o'rtasida o'zaro tovar yetkazib berish bo'yicha tuziladigan bitim bo'lib, to'lovlar markaziy banklar orqali o'zaro hisob-kitob asosida amalga oshiriladi.

•Kompensatsion bitimlar - bir tomon tomonidan yetkazib berilgan asbob-uskunalar, texnologiyalar qiymati ushbu asbob-uskunalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobidan qoplanadi. Bu shakl ayniqsa yirik investitsiya loyihalarida keng qo'llaniladi.

Ofset bitimlari - asosan harbiy-texnik hamkorlikda qo'llaniladi. Import qiluvchi mamlakat tomonidan qo'yiladigan talablarga ko'ra, eksportyor ma'lum miqdordagi tovarni importyor mamlakatda ishlab chiqarish, texnologiya transferi yoki investitsiya kiritish majburiyatini oladi.

Tuzilish xususiyatiga ko'ra bitimlar quyidagilarga bo'linadi:

- Qisqa muddatli (bir martalik) bitimlar;
- Uzoq muddatli (strategik) hamkorlik shartnomalari;
- Litsenziya va franchayzing bitimlari;
- Konsortsium bitimlari (bir necha kompaniya birgalikda ishtirok etadigan yirik loyihalar).

Xalqaro savdo bitimlarining turli shakllari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tashqi savdo siyosati, valyuta holati va boshqa omillarga qarab qo'llaniladi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlar valyuta tanqisligi sharoitida qarshi savdo va kompensatsion bitimlardan keng foydalanadilar[1-manba; 3-manba].

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar birinchi variantni tanlagan - ya'ni iqtisodiy globallashtirishni qabul qilib, milliy demokratiyani zaiflashtirgan. Bu esa ijtimoiy norozilik, populizm va millatchilikning kuchayishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining ayrim tarmoqlariga xalqaro savdo bitimlarining ta'sirini miqdoriy baholash, mintaqaviy savdo bitimlarining samaradorligi, JSTga a'zo bo'lishning uzoq muddatli oqibatlari kabi masalalar yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, ular keyingi tadqiqotlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzoqov, I. E., & Sayfiddinov, A. A. (2025). Tovarlar barqarorligiga tashish va saqlash sharoitlarining kimyoviy hamda ekologik ta'siri. *Science and Education*, 6(10), 110-113.
2. Uzoqov, I. E., Yusupov, B. B. O. G. L., Nurmatov, B. X. O. G. L., & Imankulova, G. Y. Q. (2025). E-Learning: Unpacking the Theories and Methodologies for Effective Digital Education. *Science and Education*, 6(6), 726-729.
3. Узоков, И. Э., & Иманкулова, Г. Е. (2025). Теория и методика электронного образования в технических университетах. *Science and Education*, 6(6), 799-801.
4. Karimkulov, K. M., Uzaqov, I. E., Yusupov, B. B. O. G. L., & Abdumannobova, D. M. Q. (2024). Qahva turlari, kimyoviy tarkibi va ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni tahlili. *Science and Education*, 5(2), 184-191.

5. Karimkulov, K. M., Uzaqov, I. E., & Abdumannobova, D. M. Q. (2024). Kofening turlari, kimyoviy sifatini aniqlash va tasniflash usullari. *Science and Education*, 5(2), 166-176.
6. Uzaqov, I. E., Xamroxonova, S. J. R. Q., Ro'Zimova, M. M. Q., & Uzoqova, Z. A. Q. (2024). Orol dengizini qurishidan kelib chiqadigan global muammolar va yechimlar. *Science and Education*, 5(2), 77-83.
7. Сарикүлов, М. Х., Узаков, И. Э., Куйбаков, Б. Б., & Хунаров, А. М. (2023). Роль воспитания в формировании гармонично развитого поколения. *Science and Education*, 4(6), 554-560.
8. Israilova, H. M., & Uzoqov, I. E. (2023). Oliy o'quv yurtlarida sog'lom turmush tarzi haqida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(11), 224-231.
9. Uzoqov, I. E., Lapasova, Z. K., & Jabborxonova, G. A. K. (2022). Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi: muammolar va yechimlar. *Science and Education*, 3(7), 41-52.
10. Sarikulov, M. X., Uzoqov, I. E., & Lapasova, Z. K. Q. (2022). Oliy ta'lim muassasalarida yosh kadrlarni sifatli inklyuzif o'qitishni rivojlantirish va yetuk kadrlarni tayyorlash. *Science and Education*, 3(6), 784-788.
11. Karimkulov, Q. M., Uzoqov, I. E., Sarikulov, M. X., & Xursanova, M. Y. (2022). Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini aniqlash va tasniflash usullari. *Science and Education*, 3(9), 157-161.
12. Мамадалиева, Н. А. (2022). Ресурсосбережение основа экономического роста. *Science and Education*, 3(12), 427-433.
13. Мамадалиева, Н. А., & Суяров, Х. У. (2023). Кончилик саноатида янги технологияни жорий этиш ва унинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш йўли. *Science and Education*, 4(5), 789-795.
14. Mamadalieva, N. A. (2021). The Importance of Ecotourism for Those Working in the Chemical Industry. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 1(1), 1-4.
15. Мамадалиева, Н. А., & Исломова, Р. А. (2022). Кимё Саноатида Ишловчилар Учун Экотуризмнинг Аҳдмийати. *Miasto Przyszlosci*, 30, 65-68.